

## XAYOLOTIM MAHZUNI ILM VA UNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNINI BELGILAB BERUVCHI G'OYALARIM TASNIFI

**Tilavova Diyora Dilmurodovna**

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti

Kompyuter grafikasi va badiiy foto yo'nalishi 1-bosqich talabasi

[diyoratilavova@gmail.com](mailto:diyoratilavova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi va oldingi hayot darajalaridagi ummuman olganda butun bir dunyoda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va barchaning e'tiboridan qolmagan ilmning inson hayotidagi o'rnini va uning tasavvurlarimiz olamidagi ko'rinishlari haqida ma'lumot beradi. Yuksak cho'qqilarni zabt etayotgan ilmning boshlanish va uning yo'llari haqida ham gap boradi.

**Kalit so'zlar:** ILM, Alisher Navoiy, san'at bog'lari, mo'jizakor va ilohiy, sayqallangan yoqut, muhabbatning otasi, ilm qozonlari, qaynayotgan o'choq, ilm va muhabbatning o'rtasidagi ko'priki, hayot chashmalari, ilm konidan topilgan hazinalar.

## СОДЕРЖАНИЕ МОЕГО ВООБРАЖЕНИЯ ЗНАНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА КЛАССИФИКАЦИЯ МОИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИХ

**Тилавова Диера Дилмурадона**

Студентка 1 курса Национального института живописи и дизайна имени

Камолиддина Бехзода по специальности

Компьютерная графика и Художественная фотография.

**Аннотация:** В данной статье дается информация о месте науки в жизни человека и ее проявлениях в мире наших воображений, что имеет большое значение во всем мире на сегодняшнем и предыдущем уровнях жизни, а также рассказывается о зарождении науки и ее путях

**Ключевые слова:** НАУКА, Алишер Навои, сады искусства, чудесное и божественное, полированный рубин, отец любви, котлы знаний, кипящая печь, мост между наукой и любовью, родники жизни, сокровища, найденные на nive науки

## THE CONTENT OF MY IMAGINATION KNOWLEDGE AND ITS ROLE IN HUMAN LIFE CLASSIFICATION OF MY IDEAS THAT DETERMINE

**Tilavova Diyora Dilmurodovna**

1st-year student of the National Institute of Painting and Design named after Kamoliddin Behzod in Computer Graphics and Art Photography.

**Abstract:** This article provides information about the place of science in human life and its manifestations in the world of our imaginations, which is of great importance in the whole world in today's and previous levels of life. It also talks about the beginning of science and its ways.

**Key words:** KNOWLEDGE, Alisher Navoiy, gardens of art, miraculous and divine, polished ruby, father of love, cauldrons of knowledge, boiling furnace, bridge between science and love, springs of life. treasures found in the field of science.

Yuragingizni nimtalab urayotgan unga tinchlik bermasdan g'ul-g'ula solayotgan tinimsiz sizni bezovtalab o'ylashga majbur qilayotgan bu hayollarning quyi bo'g'iniga hech e'tibor berib, nazar solganmisiz, yuragingizga quloq tutganmisiz? Aynan bunday holatda sizni chuqur bir girdobiga tortayotgan undan chiqishni esa aslo imkoni yo'qdek go'yo. Ammo keyinchalik esa o'zingiz ham mana shu ajib bir go'zal girdobdan chiqishni istamaydigandek tuyiladi. Demak siz qalban g'oyalarga, immotsiyalarga, misilsiz tasurrotlarga ega bo'lgan bir so'z bilan aytganda sevib qolgan insonsiz. Sevgi bu juda ham kata bizlarga inom etilgan ajib bir mo'jizakor ilohiy va keng qamrovga ega bo'lgan g'oyat kata kuchdir. Uning zamirida qanchalar keng koinot yastanib yotganini tasavvur ham qila olmaysiz. Zeroki bu koinotda siz bilgan va bilmagan uchar jismlar son-sanoqsiz va misli yo'q, tubi ko'rinmagan g'oyo bir ummon kabi uning ichidagi baliqlar, dengiz o'tlari kabi va suv tubi tog' jinlari toshlaridan tortib qimmatbaxo sayqallangan yoqutlar kabi baholanadi. Sevgi, muhabbat deganda inson keng fikirlashi kerak. U faqatgina insonni insonga bo'lgan sevgisi, mehri emas aksincha bizni, butun bir borliqni yaratguvchisi barcha gunoxlarni mahfirat aylashga qodir yagona zot bo'lmish Allohga, ilmga, ota-onaga, yashab unib o'sgan jannatmonan yurtga va e'zozlab qadirlab bajarishimiz kerak bo'lgan farz va sunnatlarimizga bo'lgan muhabbat chindir. Aynan shu yo'sinda misli ko'rinmagan muhabbatning otasi bo'lmish ul viqorli, salbati ko'zni qamashtirguvdek, yurgan yo'llaridan olov chaqnaguvdek, nazaridan esa butun olam yorishuvchi, iforidan borliq mast bo'luvchi ulug'lik nafasi urib turuvchi birlik bor va uning tubida cheksizlik olovi qaynab turgan qozonlari

beqiyos. Bu birlikning nomi ILMdir inson. Qaynab turgan qozonlardagi ilm hechqachon tugamasdek go'yo. Qozonlar tubidan berilayotgan o'choqning mehnati va olovvari unga yanada kuch va cheksiz ilmlar qaynovini berib turadi. Har bir qozonda o'ziga hos ilm qaynaydi. Bugun sizlar bilan mana shu qozonlarning biri haqida gaplashamiz.

ILM va MUHABBATning o'rtasiga o'rnatilgan ko'prik, ikkala tomonni ham juda ham hurmat qiluvchi, hech birini hafa qilmaslikka urunuvchi birgalikda mehribanlik bilan ish ko'ruvchi SAN'AT bog'lari va uning ichidagi mevali daraxtlaridan tortib unga ilhom berib turuvchi bulbullari haqida ham gap ketadi. Bu bog'ga kirmagan insonni o'zni bo'lmasa kerak jahonda. Shunday go'zal shunday ajib sirlarga boy bo'lgan bog'ning yo'llaridan qaytib ketish to'g'ri emas nazarimda. To'g'ri, vujudida urib turgan yurak, hayot chashmalaridan suv ichgan inson borki bu bog'larga befarq emas. Ammo shunday insonlar ham yo'q emas ularga bog'dan ko'ra ko'proq kulli vulqonlar yoqadi. Unday insonlarning ham qarashlarini hurmat qilish kerak. Sababi barcha birdak emas va ular go'zallikka toqat qilib yashashga majbur(mi?). Aynan qanday insonlarga go'zallik yoqmaydi? Go'zallikni ko'rmagan bunday hislardan yiroqda, (balkim ularda imkon yo'qligi uchundir) yohud tug'ilib oq vafot etgan qalblarda.

Hozirgi kunga kelib aynan san'at rivoji oliy darajalarga yaqinlashib qoldi desak ham mubolag'a bo'maydi. Ammo shuni ham takidlab o'tish lozimki zamon qanchalar rivojlanar ekan ilm salohiyati ham shunchalar yuksalaveradi. Bugun kashf etilgan, ko'zimizga oliy darajadagi ko'rinishida qad roslab turgan narsalar ertaga zamon nafasi bilan oddiy nasrarga aylanishi achchiq bo'sa ham rost. Bir rivoyatga yaxshilab e'tibor berishingizni so'rar edim "Qadimda buyuk mutaffakir, shoirlarning sultoni, dunyoni qalami bilan titratgan ulug' zot yani Alisher Navoiydan so'rashgan ekan "Ilmingizning cheki yo'q, qancha bilimlarni o'rgangansiz taqdir" deb so'rashganda bobomiz javob berishdan oldin ularni kata bir daryo oldiga olib borib, daryodan qo'llariga bir tomchi suvni olar ekan ularga ko'rsatishni joiz bilib" Men ilmning mana shu daryodan bir tomchisini o'rgandim" deb hitob qilibdi".

Bundan hulosa shundaki zamonlar osha limning konidan bundanda ziyoda boyliklar topiladi. Faqat bu konga kuchli mutaxassis ishchilar lozim holos. Zodagonlar hechqachon konda ishlashni o'zlariga ep bilishmagan, taqdir taqazosi bilanki doimgidek qora ishchilar va qullar ter to'kishadi. Ammo mana shu zodagonlar ham o'z o'zidan boy bo'lishmagan. Barchasining zamirida qanchadir mehnat va o'sha kondan topilgan bilimlar yotibdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi to‘g‘risida
2. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5ta muhim tashabbusdan biri.
3. Oybek qalamiga mansub “Bola Alisher” kitobi.
4. “Ilm olish sirlari”